# BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

**Xayrov Rasim Zolimxon o‘g‘li,** p.f.b.d., dotsent Guliston davlat pedagogika instituti.
e-mail: xayrov@mail.ru

**Annotatsiya.** Maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarni metodik tayyorlash nazariyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, mazkur masalaga doir metodik tavsiyalar taqdim etilgan. Maqolada metodik tayyorgarlikning maqsadi, vazifalari, ahamiyati ko‘rsatilgan. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini shakllantirish modeli bosqichlari, o‘quv jarayonida fanlar integratsiyasidan foydalanish zarurligi ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** metodik, mutaxassislik, o‘qituvchi, metodika, talaba, tasviriy san’at, model, integrativ, ta’lim, tarbiya, kredit.

# АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

**Аннотация.** В статье проанализирована теория методической подготовки будущих учителей изобразительного искусства и ее особенности, представлены методические рекомендации по данному вопросу. В статье изложены цель, задачи, значение методической подготовки. Дается научное обоснование этапов формирования модели методической подготовки будущих учителей изобразительного искусства, необходимости использования интеграции предметов в учебном процессе.

**Ключевые слова:** методический, специальность, учитель, методика, студент, изобразительное искусство, модель, интегративный, образование, воспитание, кредит.

# TOPICAL ISSUES OF IMPROVING THE METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS

**Abstract.** The article analyzes the theory of methodological training of future teachers of fine arts and its features, presents methodological recommendations on this issue. The article outlines the purpose, objectives, and significance of methodological training. The scientific substantiation of the stages of the formation

of the model of methodological training of future teachers of fine arts, the need to use the integration of subjects in the educational process is given.

**Keywords:** methodical, specialty, teacher, methodology, student, fine art, model, integrative, education, upbringing, credit.

**Kirish.**

Mamlakatimizda ta’lim sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg‘or va amaliyotda o‘zini oqlagan, talabaning faolligiga asoslangan metodlarni qo‘llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda. Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasinida[1] “... o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish” kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan [1. 2-b.].

O‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini metodik tayyorgarliksiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Pedagogika fanidagi metodik tayyorgarlik o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligining eng muhim qismi sifatida talqin etiladi, bu metodik faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirishning doimiy boshqariladigan jarayoni va metodik tayyorgarlik kasbiy tayyorgarlikka nisbatan integrativ xususiyatga ega.

Tasviriy san’at o‘qituvchisining metodik tayyorgarligining bugungi kundagi mazmuni pedagogik jihatdan moslashtirilgan fanlar va tasviriy san’at asoslarini o‘rganadigan fanlar tashkil etadi. Bu bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining ta’lim mazmunida o‘quvchilarning tasviriy faoliyatlari, tasvirlash mahorati va qobiliyatlarini rivojlantirish yo‘nalishi bo‘yicha bilim berish va dastlabki tasviriy savodxonlikni shakllantirishga qaratilgan.

***Adabiyotlar tahlili***

Oliy ta’lim muassasalarida malakali mutaxassislarni tayyorlashda metodik tayyorgarlik tamoyili muhim o‘rinni egallaydi. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda B. M. Nemenskiy, Z. N. Novlyanskaya, N. N. Rostovtsev. L. B. Ro‘lova, E. V. Shoroxov, M. V. Dolgix, G. S. Fedkov kabi pedagog-olimlar shug‘ullanishgan [6. 15-b.]. Respublikamizda tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda R. Xasanov, B. Oripov, S. Bulatov, A. Sulaymanov, B. Boymetov, S. Abdirasilov, U. Nurtoev, N. Oydinov, oxirgi yillarda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy-metodik va kompetenlik tayyorgarligi bo‘yicha K. Gulyamov, N. Yadgarov, R. Xayrov, S. Azimov, H. Sultanov, Sh. Oydinov, N. Yuldasheva, M. Sharipjanov, Sh. Qobilov, O. Jabborovalarning qator tadqiqotlarida ko‘rishimiz mumkin [7. 2-b.].

O‘qituvchining kasbiy faoliyatining metodik jihatlari nafaqat yosh avlodni o‘qitish usullarini tahlil qilish va asoslash bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarni o‘quv fani orqali ta’lim bilan birga tarbiya jarayonini ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini metodik tayyorlash vazifalari mos ravishda kengaytirilishi kerak [5. 65-b.].

[1] O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini. Lex.uz. 2020.

Maqolaning asosiy maqsadi - bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini metodik jihatdan tayyorlash modelini ishlab chiqish va uning ahamiyatini o‘rganish.

***Tadqiqot metodologiyasi*.**

Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlaridan kelib chiqib kunduzgi va sirtqi ta’lim yo‘nalishlarida amalga oshiriladi. O‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda 3 yil, sirtqi ta’lim 5 yil bo‘lishi mumkin. Bakalavriat o‘quv dasturi 180 kredit birligini tashkil etadi [5. 75-b.].

Xususan, tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr kasbiy faoliyati:

- pedagogik;
- ilmiy tadqiqot;
- ma’naviy-ma’rifiy;
- tashkiliy-boshqaruv turlariga bo‘linadi.

Metodik tayyorgarlik tasviriy san’at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talabalarida belgilab berilgan bo‘lib, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining faoliyat turidan qat’iy nazar uning kasbiy-metodik tayyorgarligi ikkita asosiy tarkibiy qismni mujassalashtiradi. Ular:

1. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarlik darajasini aniqlovchi nazariy bilimlari tizimi.

2. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarligini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikma va malakalar tizimi.

**Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini shakllantirish modeli.** Pedagogik adabiyotlarni o‘rganish, oliy ta’lim muassasalari tizimidagi ko‘p yillik pedagogik faoliyat va olib borilgan tadqiqotlar natijasida biz metodik tayyorgarlikni shakllantirish modelini o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha beshta qismga (bosqichlarga) bo‘ldik: **1) nazariy; 2) amaliy; 3) tahliliy; 4) harakatli; 5) faoliyat.**

Nazariy qism maktabda tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi kursi bo‘yicha nazariy materiallarni o‘rganish, uni batafsil o‘quv faoliyati va dars ishlanmalarini yozishda dastlabki qo‘llashi bilan bog‘liq.

Amaliy qism maktab o‘quv dasturi bo‘yicha pedagogik tasvirlash ishlarini va unga taqdim etiladigan tasviriy san’at materiallari bilan ishlash texnologiyalari bilan bog‘liq.

Tahliliy qism bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini metodik tayyorgarlik qismi bo‘lib, unda ta’lim muassasalari tizimidagi o‘quv jarayonlari, dasturlar, o‘quv rejalar, maktab darsliklari, ko‘rgazmali qurollar va boshqalarni tahlil qilishga o‘rgatishga qaratilgan. Shu bilan birga, biz o‘quv materiali mazmunining dolzarbligi, uning hayot bilan bog‘liqligi, maktab o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga muvofiqligi, o‘quv materialini taqdim etishda mantiq va izchilikga alohida e’tibor qaratiladi; talaba o‘zing va kursdoshlarining darslarini tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish, sub’ektiv

tajribasini oshirish, talaba o‘zining metodik tayyorgarligini shakllantirishga, o‘quv jarayoni natijalarini bashorat qilishga qaratilgan [8. 26-b.].

Metodik tayyorgarlik modelini shakllantirishning harakatli qismida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilari tomonidan maktab o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalash bo‘yicha metodik harakatlarini o‘zlashtirishga qaratilgan. U quyidagi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi: a) o‘quv jarayoniga tayyorgarlik ko‘rish; b) o‘quv materialini maktab o‘quvchilari uchun tushunarli tilda yoritish, mavzu yuzasidan savollar berish, tinglash, korrektsiyalash va o‘quvchilarning javoblarini umumlashtish (bunga quyidagilar kiradi: o‘quv ko‘rgazmali qurollarini namoyish etish, yangi materialni tushuntirishning qulay usullarini qo‘llash, o‘quv materialini hayot bilan bog‘lash va hokazo); v) sinfda ta’lim jarayonini tashkil etishda qulay psixologik muhitni yaratish; g) sinfda turli hil vaziyatlarga hozir javob bo‘lish; d) o‘quvchilarning mustaqil ishlariga rahbarlik qilish va mavzu bo‘yicha dars yoki ta’lim-tarbiya tadbirlarini umumlashtirish.

Metodik tayyorgarlikni shakllantirish modelining faoliyat qismi olingan bilim va ko‘nikmalarni tasviriy san’at darslarida, birinchi navbatda amaliy mashg‘ulotlarda metodologiyaga muvofiq (batafsil rejalar-xulosalar tuzilgandan so‘ng) pedagogik amaliyot davrida (umumiy o‘rta ta’lim maktablarining tasviriy san’at darslarida) qo‘llash bog‘liq.

Bunga quyidagilar kiradi: 1) umumiy o‘rta ta’lim maktabi tasviriy san’at bo‘yicha o‘quv dasturi bilan ishlash qobiliyati; 2) maktab o‘quvchilarining o‘quv faoliyatini rejalashtirish qobiliyati; 3) dars uchun o‘quv materialini tanlashda sinf o‘quvchilarini individual xususiyatlaridan kelib tabaqalashtirish; 4) sinfda keng ko‘lamli naturali qo‘yilmalarni tashkil etish, tasviriy san’at ko‘rgazmasiga, tabiat qo‘yiniga ekskursiyalar tashkil etish qobiliyati; 5) darsning o‘quv maqsadlari va vazifalarini belgilash va ularga ta’lim jarayonida erishish; 6) sinfda turli xil o‘quv, ma’naviy-madaniy tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish qobiliyati; 7) maktab o‘quvchilarining badiiy va ijodiy faoliyati mahsulotlarini tahlil qilish qobiliyati; 8) darsni umumlashtirish qobiliyati; 9) o‘quvchilar tasviriy san’atdan tanlovlar, viktorinalarni tashkil qilish va hokazolar qobiliyati.

Bu erda asosiy holat talabalarning o‘quv materialini individual psixologik xususiyatlariga muvofiq tushunishlari, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish qobiliyati, ayni vaqtda uni maktab o‘quvchilari bilan ishlash uchun zarur bo‘lgan shaxsiy tajribasi sifatida idrok etish, anglash, tushunish, qabul qilishga tayyorligi. Shuning uchun bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini metodik tayyorlashda biz talabalar bilan individual ishlashga alohida ahamiyat beramiz [4. 3-b.].

Shunday qilib, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini shakllantirish modeli, bizning pozitsiyamizga ko‘ra, talabalarni ularning mavjudligidan ko‘ra mazmunli bilim va amaliy metodik ko‘nikmalar bilan qurollantirishni o‘z ichiga oladi; sub’ektiv metodik tajribani shakllantirish; o‘quv-metodik tayyorgarlikni qurish nazariyadan amaliyotga va amaliyotni tahlil etish orqali nazariyagacha bo‘lgan jarayondir. Ushbu yondashuv tasviriy san’at o‘qituvchisining sub’ektiv tajribasini amaliy tekshirishga, uni tuzatishga va doimiy

ravishda yangilab turishga va yangi bilim, amaliy ko‘nikmalar bilan to‘ldirib borishga yordam beradi.

***Tahlil va natijalar.***

**Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi mazmuni modeli.** Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligining o‘ziga xos xususiyatlari metodik bilim, ko‘nikma, sub’ektiv uslubiy tajriba va o‘qituvchining shaxsiy kasbiy fazilatlarini shakllantirishni ta’minlaydigan model va uning mazmunini ishlab chiqish bilan uzviy bog‘liqdir. Muammoni o‘rganish kelajakdagi tasviriy san’at o‘qituvchilarini maktabda kasbiy ishlarga metodik tayyorlash uchun tarkib modelini loyihalashning olti bosqichini aniqlashga imkon berdi.

**Birinchi bosqich -** birinchi navbatda, bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan o‘qitiladigan fan orqali maktab o‘quvchilarining bilimlarini shakllantirish zarurligini tushunishga hissa qo‘shadigan ta’lim-tarbiya jarayoni mazmunining maqsadli yo‘nalishlarini aniqlash; metodologik, san’atshunoslik, psixologiya va pedagogika fanlari yutuqlarini hisobga olib, fan mazmunining kontseptual mazmuni anglash.

Loyihalashning **ikkinchi bosqichi -** bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi mazmunini aniqlash bilan bog‘liq. U estetik, badiiy, axloqiy, ekologik, vatanparvarlik tarbiya sohasidagi bilim va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot natijasida olingan ma’lumotlarga qaraganda: 1) maxsus fanlar - chizmatasvir, rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik, plastik anatomiya, rangshunoslik, perspektiva, san’at tarixi, grafik tasvirlash asoslari va 3D modellashtirish, tasviriy san’atni o‘qitish nazariyasi va metodikasi; 2) ijtimoiy va gumanitar fanlar tsiklining fanlari - Jahon va O‘zbekiston tarixi; O‘zbekistonning eng yangi tarixi; madaniyatshunoslik; dinshunoslik; 3) axborot texnologiyalari fanlari tsiklining o‘quv predmetlari - mediasavodxonlik va axborot madaniyati; 4) umumiy kasbiy fanlar tsiklining o‘quv predmetlari - pedagogika; psixologiya; nutq madaniyati fanlari talabalarda metodik tayyorgarlikning shakllantirish uchun zaruriy shartlaridir [4. 6-b.].

**Uchinchi bosqich** umumiy kasbiy, gumanitar, maxsus va metodik tsikldagi o‘quv fanlari o‘rtasida **integratsiya va fanlararo aloqalarni o‘rnatishni** o‘z ichiga oladi. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining bilimlari, ko‘nikmalari va malakalari integratsiyasi quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: *predmetli* (tasviriy san’at mutahassisligi fanlari); *psixologik-pedagogik; va xususiy-metodik;* texnologik va metodik integratsiya. Bu bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ta’limiy dunyoqarashini yaxlit kartinasini shakllantiradi, “tabiat - jamiyat - inson” tizimida sodir bo‘layotgan jarayonlarni izohlaydi, zamonaviy sharoitda maktab o‘quvchilarini estetik, badiiy, axloqiy, ekologik, vatanparvarlik, mafkuraviy tarbiyalashga kompleks yondashuvning dolzarbligini tushungan holda [5. 75 - b.].

**To‘rtinchi bosqich** - bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini metodik faoliyatga kiritish orqali maktab o‘quvchilarining ma’naviy madaniyatini shakllantirishda

metodik kompetentsiyasini shakllantirishga qaratilgan metodik vazifalarni nazariy asoslash va ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

**Beshinchi bosqich** talabalarni maktab o‘quvchilarining ma’naviy madaniyatini shakllantirishga tayyorlashning metodik modeli vositalarini aniqlash bilan bog‘liq. Bunga quyidagilar kiradi: 1) estetikani naturada, ya’ni tabiat qo‘yinida idrok etish; 2) tasviriy san’at asarlarida badiiy obrazni idrok etish; 3) amaliy tasviriy faoliyat (xalq ijodiyoti asarlariga illyustratsiyalar bajarish).

Metodik modelni loyihalashning **oltinchi bosqichi** tanlangan qiymat-maqsadli ko‘rsatmalar va o‘quv jarayonining refleksiya bilan belgilanadigan (birinchi bosqichda bo‘lgani kabi) amalga oshirilgan ishlarni aks ettirish bilan bog‘liq.

Shuni ta’kidlash kerakki, metodik tayyorgarlikning ishlab chiqilgan modelining samaradorligi ko‘p jihatdan O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonunining talablariga javob beradigan va bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligidan oldinda bo‘lgan axborot-ta’lim muhitini shakllantirishga bog‘liq.

***Xulosa va takliflar***

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, bo‘lajak o‘qituvchilarni metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston va xorijlik pedagog-olimlarning ilmiy ishlaridan kelib chiqib bo‘lajak o‘qituvchilarni metodik tayyorgarligini didaktik imkoniyatlarini ko‘rib chiqdik. Unga ko‘ra metodik tayyorgarlik jarayonini maqsadi, vazifalaridan kelib chiqib, uni akmalga oshirish bosqichlariga rioya etilishida pedagogik natijalarga erishiladi. Bunga kasbiy-metodik tayyorgarligi takomillashtirish bevosita ta’lim jarayonida fanlar integratsiyasining shakl, usul va vositalarini to‘g‘ri tanlashga bog‘liqdir. Shunday qilib, ishlab chiqilgan bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini metodik tayyorgarligida quyidagilar: tasviriy san’at fanlarining o‘qitish metodikasining rivojlanish tarixi, asosiy printsiplari va qonuniyatlari, dolzarb muammolari, tasviriy san’atni o‘qitishning mazmuni, metodlari, vositalari, shakllari. Shuningdek, xususiy metodikaning uziga xos xususiyatlari, fanni o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, o‘quvchilar ongi va qalbiga milliy g‘oyani singdirishda zarur metodik bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish yo‘llariga oid bilimlar berish, tahliliy - tankidiy, ijodiy va mustakil fikr yuritish va o‘rgatish ko‘nikmasi va malakalari shakllantiriladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar tasviriy san’at o‘kitish metodikasi fanlarining rivojlanishi, tarixi, pedagogik texnologiyalar, o‘qitish metodlari, o‘qitish vositalarini amaliyotga samarali ko‘llay olishi, ta’limni DTS me’yorlari, o‘quv dasturlariga kura tashkil etishi, baxolash mezonlarini tushunishi, xalkaro baholash tadqiqotlarini bilishi va o‘quvchilarning savodxonligini (STEAM kontekstlari) rivojlantirish faoliyatida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalana olish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini. Lex.uz. 2020.
2. Mirziyoev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – B. 22.
3. Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi malaka talablari. - T.: TDPU. 2022. – B. 33.
4. Федьков Г. С. Актуальные вопросы модернизации методической подготовки будущих учителей изобразительного искусства // Искусство и культура 2014, №4 – 130-136
5. Адольф В. А. Теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителя: дис. докт. пед. наук: 13.00.01- М.: 1998. – 357. с.
6. Xayrov R. Z. Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarga individual yondashuv. Monografiya. -T.: Ilm Ziyo Zakovat. 2021. -102 bet.
7. Хайров Р. З. Совершенствование подготовки будущих педагогов изобразительного искусства к обучению графике на основе индивидуального подхода. «Матрица научного познания» Научный электронный журнал // ISSN 2541-8084 №-5-1/2022 (апрель 2022). P. 330-333 с. https://os-russia.com/SBORNIKI/MNP-2022-05-1.pdf/
8. Хайров Р. З. Бўлажак ўқитувчиларининг касбий-методик тайёргарлигини такомиллаштиришнинг дидактик имкониятлари ва модели // International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers // Volume-11| Issue-5| 2023 Published: |22-05-2023| // https://doi.org/10.5281/zenodo.7901973 //